

qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari);

g) shartnoma asosida Iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganda.

8.4. Etkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Etkazib beruvchidan etkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Etkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Etkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz etkazib berilganda, Etkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq Etkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPTSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korruptsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalariga oid shartlarni va talablarni tadbiiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korruptsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishli sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

XI. FORS-MAJOR HOLATLAR

11.1. Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar,

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida, gazni qayta ishlash korxonalari va gaz qazib chiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek Engib bo'lmas kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan, sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, er qimirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarish imkoni bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz Etkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabatlarni to'xtatish huquqiga ega bo'ladi.

11.2. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda hamda taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

12.2. Budget tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralidagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma 2022 yil 31 dekabr gacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.